

## **JAHON BANKINING YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH LOYIHALARI TADQIQI.**

**Xo'jamqulova Gulhayo Ergash qizi**

*bank moliya akademiyasi loyiha boshqaruvi yonalishi 23-30 guruh magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Jahon banki hamda uning vazifalari, u tomonidan qo'shimcha texnik ko'mak sifatida ajratiladigan mablag'lar, yashil iqtisodiyot kontseptsiyasi va Jahon bankining yashil iqtisodiyotni rivojlantirish loyihalari, O'zbekistondagi islohotlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Jahon banki, yashil iqtisodiyot, Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash loyihasi, ekotizim, energiya samaradorligi, iqtisodiyot.*

**Аннотация:** *В данной статье представлена информация о Всемирном банке и его задачах, средствах, выделяемых им в качестве дополнительной технической помощи, концепции зеленой экономики и проектах развития зеленой экономики Всемирного банка, реформах в Узбекистане.*

**Ключевые слова:** *Всемирный банк, зеленая экономика, инновационный проект использования углеродных ресурсов для энергетических реформ, экосистема, энергоэффективность, экономика.*

**Abstract:** *This article provides information about the World Bank and its tasks, the funds allocated by it as additional technical assistance, the concept of green economy and the World Bank's green economy development projects, reforms in Uzbekistan.*

**Key words:** *World Bank, green economy, innovative carbon resource utilization project for energy reforms, ecosystem, energy efficiency, economy.*

### **KIRISH**

Yashil iqtisodiyot - bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yo'nalishga ega.[1][2] UNEP 2011 Yashil Iqtisodiyot hisobotida ta'kidlanishicha, „yashil bo'lishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli bo'lishi kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o'lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o'tishni ta'minlashni nazarda tutadi.“

Uni oldingi iqtisodiy rejimlardan ajratib turadigan xususiyat — bu tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni iqtisodiy ahamiyatga ega sifatida bevosita baholash (qarang: „Ekotizimlar va bioxilma-xillik iqtisodiyoti“ va „Tabiiy kapital banki“) va xarajatlar ekotizimlar orqali jamiyatga tashqariga chiqariladigan to‘liq xarajatlarni hisobga olish rejimi. Aktivga zarar yetkazgan yoki e‘tiborsiz qoldiradigan tashkilotga ishonchli tarzda qaytariladi va uning majburiyatlari sifatida hisobga olinadi. Yashil stiker va ekologik belgi amaliyoti iste‘molchilar oldida atrof-muhitga do‘stona munosabat va barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari sifatida paydo bo‘ldi. Ko‘pgina sanoat tarmoqlari globallashtirish iqtisodiyotda yashillashtirish amaliyotini targ‘ib qilish usuli sifatida ushbu standartlarni qabul qila boshlaydi. Barqarorlik standartlari sifatida ham tanilgan bu standartlar sotib olingan mahsulotlar atrof-muhitga va ularni ishlab chiqaruvchi odamlarga zarar yetkazmasligini kafolatlaydigan maxsus qoidalardir. Ushbu standartlar soni yaqinda o‘shib bordi va endi ular yangi, yanada yashil iqtisodiyotni qurishda yordam berishi mumkin. Ular o‘rmon xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi, tog‘-kon sanoati yoki baliqchilik kabi iqtisodiy sohalarga e‘tibor qaratadi; suv manbalari va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish yoki issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish kabi ekologik omillarga e‘tibor qaratish; xodimlarning ijtimoiy himoyasi va huquqlarini qo‘llab-quvvatlash; va ishlab chiqarish jarayonlarining muayyan qismlariga uy.

Jahon Banki — Xalqaro Moliya Instituti hisoblanib, rivojlanayotgan mamlakatlarga sarmoyalar kirgazish, kreditlar taqdim etish bilan shug‘ullanadi. Jahon banki — xalqaro moliya muassasasi. Tarkibiga BMTning ixtisoslashgan muassasasi maqomiga ega bulgan 3 mustaqil xalqaro moliya instituti (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi hamda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi) kiradi. Ba‘zi adabiyotlarda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki norasmiy holda Jahon banki deb ham ataladi. Jahon banki o‘z tarkibiga yirik 2 ta tashkilotni: Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) va Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasini (XTA) oladi. Ulardan tashqari unga 3 ta boshqa tashkilotlar ham bilvosita kiradi: Jahon banki bilan uyushgan, ammo huquqiy, moliyaviy jihatdan mustaqil faoliyat ko‘rsatuvchi — Xalqaro moliyaviy korparatsiya (XMK) (bu tashkilot rivojlanayotgan mamlakatlardagi xususiy korxonalarni moliyalashtirishga yordam beradi). Investitsion kelishmovchiliklarni tartibga solish xalqaro markazi va Investitsiyalarni har tomonlama kafolatlovchi agentlik (MIGA).

Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasini (XTA) mamlakatlarka imtiyozli kreditlar berish bilan shug'ullanib, ular donor mamlakatlar tomonidan beriladigan xayriya mablag'lari asosida moliyalashtiriladi. Jahon banki dunyodagi kapital, qimmatbaho qog'ozlar bozorlarining asosiy mablag' oluvchisi hisoblanadi. Bundan tashqari, bank bir qator mamlakatlardan obligatsiya, zayom sotish orqali tog'ridan-tog'ri qarz oladi, yig'ilgan mablag'lar qoloq mamlakatlarning taraqqiyoti yo'lida ishlatiladi va ularga imkoniyati darajasidagi past foizlar hisobida beriladi. Jahon banki kredit olish, uni qaytara olish darajasida bo'lgan mamlakatlar uchun mablag'larni mujassamlaydi. Ammo, boy mamlakatlarga yoki alohida shaxslarga jahon banki tomonidan kredit berilmaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining jon boshiga yalpi mahsulot \$1200 atrofida bo'lgan taqdirda ular Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankidan kredit olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu kreditlar 12-15 yil ichida qoplanishi lozim. Ikkinchi tomondan, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasini (XTA) kreditlarni qoloqroq mamlakatlarga, ya'ni ulardagi yalpi milliy mahsulot jon boshiga 800 dan kam bo'lgan mamlakatlarga beradi (asosan XTA tomonidan berilayotgan kreditlarning 80 %ini hozirgi vaqtda aholi jon boshiga \$ 700 dan kam bo'lgan mamlakatlar oladi). Bu kreditlar bo'yicha foizlar olinmasdan, ko'pgina hollarda ular 35-40 yillar oralig'ida to'lash sharti bilan beriladi. Jahon banki o'z faoliyatini rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlarga texnik loyihalarni, iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish jihatdan yordam berish orqali bu mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi. Bu vazifalar banking asosiy uzoq muddatli vazifasi hisoblanadi.

#### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Oxirgi yillarda bank oldingi yillardagi tajribalariga tayangan holda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari darajalarini inobatga olib, loyihalarni tanlash jarayonida asosan rivojlanayotgan mamlakatlarning qoloq qatlamlarini qamrashga, ularning taraqqiyot darajalarini oshirishni nazarda tutgan holda olib borilyapti. Shuning uchun ham, Bank tomonidan texnik va moliyaviy jihatdan yordam berish va moliyalashtirish jarayonida BMT tomonidan belgilangan dastuga asosan ham texnik yordam beruvchi, ham loyihani ijro etuvchi sifatida qatnashadi. Bank tomonidan tanlanadigan loyiha, ularning yo'nalishlari milliy mamlakatlar, ularning mahalliy hokimiyatlari, boshqa tegishli tashkilotlar bilan har tomonlama kelishilgan holda amalga oshiriladi. Bank kredit ajratish jarayonida o'z mutaxassislari ishtirokida kredit oluvchi mamlakatlarning iqtisodini sinchkovlik bilan tahlil etish asosida qaysi sohaga asosiy e'tibor berish yoki qo'yilmalarni joylashtirish borasida u yoki bu sohani tanlash imkoniyatidan foydalaniladi. Bunday tahlitda ish yuritish ushbu mamlakatlarning asosiy muammolari yechimida qatnashib, uning rivojlanishiga yordamlashishni nazarda tutadi.

«Jahon banki ishtirokida «Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi prezident qarori imzolandi. Unga muvofiq, 2030 yilgacha «yashil iqtisodiyot»ga o'tish va «yashil o'sish»ni ta'minlash dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning kam uglerodli rivojlanishini ta'minlash maqsadida O'zbekistonda «Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash» (iCRAFT) loyihasi amalga oshiriladi. Ushbu maqsadda Jahon banki 46,25 mln AQSh dollari miqdorida mablag' ajratadi. Loyiha 2023-2028 yillar davomida respublika miqyosida amalga oshiriladi. Buning uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida davlat muassasasi shaklida tashkil etilgan «Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi» loyiha ofisi Jahon banki tomonidan qo'shimcha texnik ko'mak sifatida ajratiladigan mablag'lar hisobidan 7 ta shtat birligiga kengaytiriladi va loyihani amalga oshirish guruhi tashkil etiladi. «Yashil iqtisodiyot» onlayn platformasi tashkil etilib, ushbu platforma doirasida issiqxona gazlari reyestri yaratiladi. Monitoring, hisobot va tekshirish (MRV) tizimi bo'yicha yig'iladigan ma'lumotlar bazasi ishlab chiqiladi. Qarorga ko'ra 2024 yil 1 iyulga qadar manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda iqtisodiy faoliyat turlarini ekologik jihatdan tasniflash imkoniyatini beruvchi «yashil taksonomiya» tizimi joriy etiladi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi boshqarma boshlig'i Shahzod Islomov «yashil iqtisodiyot» va barqaror o'sish tamoyillari asosida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, bunda iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirini kamaytirish va unga moslashish masalalari muhim ekanini qayd etdi. Shu talablardan kelib chiqib, energetika sohasida, xususan, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish, iqtisodiyot tarmoqlarini «yashil iqtisodiyot» tamoyillari asosida rivojlantirish, ushbu yo'nalishdagi loyihalarni moliyalashtirish uchun yangi moliyaviy vositalar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, Jahon banki bilan birgalikda Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimining 6-moddasiga muvofiq, qisqartirilgan issiqxona gazlari (SO<sub>2</sub> – uglerod)ning xalqaro savdosi mexanizmini yo'lga qo'yish bo'yicha loyiha amalga oshirilmoqda.

#### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 8 avgustdagi «Jahon banki ishtirokida «Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlandi. Bunda Jahon banki huzuridagi «Uglerod aktivlari transformativ fondi» moliyaviy ko'magida O'zbekiston hukumatiga uglerod bozorida ishtirok etishda ko'maklashish loyihasi doirasida 46,2 million dollarlik mablag'larni 2023-2028 yillar davomida jalb qilish ishlari olib borilmoqda. Mazkur loyiha 2 ta komponentdan iborat bo'lib, birinchi komponentda kamaytirilgan emissiyani sotib olish shartnomasi doirasida 20 million dollar miqdorida mablag' jalb qilinadi. Ikkinchi komponent bo'yicha yumshatish natijalarini sotib olish shartnomasi doirasida 25 million dollar miqdoridagi mablag' ajratiladi.

Shuningdek, brifingda vazirlik boshqarma boshlig'i O'zbekistonning issiqxona gazlarini qisqartirish bo'yicha Parij bitimi doirasidagi majburiyatlari bajarilishi ustidan doimiy monitoringni yo'lga qo'yish, korxonalar tomonidan atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarini xisoblash, "yashil energetika" sohasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini baholash maqsadida MRV tizimi ishlab chiqilayotganini ham aytib o'tdi. Unga ko'ra, MRV tizimi doirasida issiqxona gazlarining barcha darajadagi manbalari ustidan doimiy monitoring o'rnatiladi va ularning emissiyasini qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab boriladi. Shu bilan birga, "yashil energetika" tarmog'ini yanada rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni yanada kengaytirish maqsadida "yashil energiya sertifikatlari" tizimi tatbiq etilayotir. Xalqaro tan olinadigan "yashil" sertifikatlar tizimini joriy qilishga ko'maklashish uchun Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini sertifikatlash xalqaro jamg'armasi (I-REC) bilan kelishuvga erishilgan.

Ayni paytda ilmiy va siyosiy doiralarda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi faol targ'ib qilinmoqda. Yashil iqtisodiyot kontseptsiyasiga bo'lgan qiziqishning ortishi hozirgi iqtisodiy modeldan umidsizlikning kuchayishi va yangi asrning boshida kuzatilgan ko'plab inqirozlar va bozor muvaffaqiyatsizliklari bilan bog'liq. Barqaror rivojlanish va "yashil" iqtisodiyotning asosiy tamoyillari quyidagilar deb hisoblaymiz:

1. Tabiiy kapital qiymatini bilish. Tabiiy aktivlar (o'rmonlar, ko'llar, botqoq yerlar va daryolar havzalari) ekotizim darajasida tabiiy kapitalning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ular tabiatdagi suv aylanishining barqarorligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi va uy xo'jaligi, uglerod aylanishi va iqlimni yumshatish, tuproq unumdorligini oshirish, baliqchilik va boshqalar uchun juda muhimdir.

2. Tabiiy kapitalga investitsiya qilish zarurati. Tabiiy boyliklarga investitsiyalarni ko'paytirish xalq turmush darajasini oshiradi. Jahon iqtisodiyotini ko'kalamzorlashtirishning global ta'sirini o'rganish uchun kelgusi o'n yilliklarda har yili global yalpi ichki mahsulotning 2-3 foizini iqtisodiyotni yashillashtirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Moliyaviy mablag'larni tejash va iqlim o'zgarishi muammolarining ustuvorligini hisobga olgan holda, global siyosatda yashil texnologiyalarga investitsiyalarning qariyb yarmi energiya samaradorligiga, xususan, kommunal xizmatlar, sanoat va transportga, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga yo'naltirilishi kerak. Investitsiyalarning bir qismini chiqindilarni boshqarish, jamoat transporti infratuzilmasi va tabiiy kapitaldan foydalanishga asoslangan qator tarmoqlarni (qishloq, baliqchilik, o'rmon xo'jaligi, suv ta'minoti) yaxshilashga yo'naltirish lozim.

3. Qashshoqlikni kamaytirish. Surunkali qashshoqlik ijtimoiy adolatsizlikning eng ko'zga ko'ringan ko'rinishi bo'lib, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishning teng emasligi, kredit va daromad olish imkoniyatlarining teng emasligi, mulkiy huquqlarning umumiy himoyalanmaganligi bilantavsiflanadi. Yashil iqtisodiyotning asosiy xususiyati mamlakatning tabiiy boyliklarini yo'q qilmasdan iqtisodiy rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirish uchun turli imkoniyatlar yaratishdir. Bu, ayniqsa, ekotizim tovarlari va xizmatlari inson hayotining muhim manbai bo'lgan kam daromadli mamlakatlar uchun o'ta muhimdir.

4. Ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy tenglikni yaxshilash. Oxirgi yillarda jahon iqtisodiyoti bank-kredit inqirozi va narxlarning keskin ko'tarilishi natijasida, ishsizlik muammosi kuchaydi. Yashil iqtisodga o'tish jigarrang iqtisod kabi ko'plab ish o'rinlarini yaratadi.

5. Qayta tiklanadigan energiya va kam uglerodli texnologiyalardan foydalanish. Energetika sektori issiqxona gazlari chiqindilarining uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Hozirgi energiya tizimi fotoalbom yoqilg'ilarga asoslangan va iqlim o'zgarishiga olib keladi. Qayta tiklanadigan manbalardan energiya ta'minotini ko'paytirish qazib olinadigan yoqilg'i narxining oshishi xavfini kamaytiradi va atrof-muhitga ta'sirini kamaytiradi. Energetika sektorini ko'klamzorlashtirish uglerodli energiya manbalariga investitsiyalardan toza energiyaga sarmoya kiritishni, shuningdek energiya samaradorligini oshirishni talab qiladi.

6. Resurs va energiyadan samarali foydalanish. Jahon iqtisodiyotining o'sishi xom ashyo tanqisligi va ular narxining oshishi sharoitida iqtisodiy qiymat yaratishning tabiiy resurslardan foydalanish va uning atrof-muhitga ta'siriga bog'liqligini bartaraf etish vazifasi ustuvor vazifaga aylandi. Jamiyat resurslari cheklangan va uglerod emissiyasi muhitida yashay boshlaganligi sababli, asosiy muammo iqtisodiy o'sishni materiallar va energiya resurslari iste'moliga to'liq bog'liqlikdan chiqarishdir.

7. "Yashil" texnologiyalardan foydalangan holda barqaror shaharlar (eko-shaharlar) yaratish. Ekologik yoki "yashil" shaharlar aholining yuqori zichligi, uy-joy qurilishi va bandlik bilan tavsiflanadi. Bunday shaharlarda ko'plab savdo korxonalari va ko'ngilochar infratuzilma mavjud. Transport tizimi nuqtai nazaridan to'g'ri loyihalashtirilgan va foydalanish mumkin bo'lgan hududlar jamoat transportini samarali tashkil etish imkonini beradi va ularni "yashil" shaharlar yaratishning boshlang'ich nuqtasi sifatida ko'rish mumkin. Aholi zichligi yuqori bo'lgan holda, infratuzilmani, jumladan ko'cha tarmog'ini, temir yo'llarni, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini va boshqa kommunal xizmatlarni qurish xarajatlari har bir aholi uchun xizmatlar narxi tarqoq binolarga qaraganda ancha past. Shu sababli, shaharsozlik jarayonida barqaror rivojlanish zarurligini hisobga olgan holda sinergik effekt olish va samaradorlikni oshirish mumkin. "Yashil" iqtisodiyot davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy vositasi bo'lib, ekologik va iqtisodiy jihatlarni eng yaqin bog'lashga qodir. Texnogen iqtisodiy rivojlanishdan yangi "yashil" yo'nalishga o'tishning faol ishtirokchilarining roli mintaqaviy ekologik va iqtisodiy siyosatni ta'minlashda mustaqillikka va tashabbusga ega bo'lgan hududlar bo'lishi kerak.

Xulosa va takliflar.

Xulosa sifatida shu ta'kidlash mumkinki, yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida 2026 yilgacha milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish borasida bir qator strategik vazifalar belgilangan. Xususan, tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash, biznes muhiti va zarur infratuzilmalarni yaratish bo'yicha islohotlarni davom ettirish, kambag'allikni ikki barobar qisqartirish, hududlarni rivojlantirish va agrar sohani rivojlantirishga oid vazifalarga alohida ahamiyat berilgan. Mazkur vazifalar, mamlakatning iqtisodiy o'sishi ta'minlash uchun xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

4. I. www.lex.uz
5. II. www.uza.uz
6. III. To'xtaliyev N. "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti". Toshkent -1998-yil
7. IV. Pulatova R.X. "Agrosanoat majmuasida infratuzilma faoliyatini tashkil etish". O'quv qo'llanma. ToshDAU. 2006-yil
8. V. "Elektr energiyasidan samarali foydalanish muammolari". Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. 2003-yil
9. VI. World Bank to lead economic push on nature protection". BBC News.
10. VII. "The World Bank and the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. 2022. Towards a Greener Economy in Uzbekistan. ©World Bank."
11. VIII. Porfirv B.P., "Green" economy: reality, perspective and predely rosta. - M. Carnegie, 2013.